



**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA KOMPYUTER
IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH**

**Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU
Pedagogika - psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi
Berdiyeva Shoiraxanovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, istiqbollari hamda mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi. Mediata'lim vositalari orqali innovatsion ta'lim uslublarini rivojlantirish, bo'lajak kadrlarda medisavodxonlikni shakllantirish usullari va amaliy tatbiqi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mediata'lim, innovatsiya, gumanitar fanlar, audio, video, infografika, animatsiya, interaktivlik, STEM ta'lim, axborot, sun'iy intellekt, texnologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение и перспективы инновационных технологий в преподавании гуманитарных наук, а также существующие проблемы и пути их решения. Анализируются развитие инновационных методов обучения посредством средств медиаобразования, методы формирования медицинской грамотности будущих кадров и их практическое применение.

Ключевые слова: Медиаобразование, инновации, гуманитарные науки, аудио, видео, инфографика, анимация, интерактивность, STEM-образование, информация, искусственный интеллект, технологии.

Abstract: This article discusses the importance of innovative technologies in teaching the humanities, their prospects, as well as existing problems and ways to solve them. The methods and practical application of developing innovative teaching methods through media education tools, forming media literacy in future personnel are analyzed.





Keywords: Media education, innovation, humanities, audio, video, infographics, animation, interactivity, STEM education, information, artificial intelligence, technology.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb va muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, gumanitar fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o'qitish jarayonini interaktiv tarzda olib borish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'quvchilar uchun ko'plab qulayliklarni yaratadi. Dars davomida ilmiy manbalar bilan bir qatorda vedio-animatsiyalardan foydalanish yoki o'quvchilarning fanni o'zlashtirish darajasini baholash uchun quezz testlarni qo'llash orqali dars jarayoni qiziqarli tashkil etilib, o'quvchilarning kreativligi oshiriladi. Ta'lim tizimi tezkor rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. An'anaviy ta'lim usullari o'rnini innovatsion pedagogik yondashuvlar egallab, media va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli tarzda olib borilmoqda. O'z oldimizga quygan asosiy vazifalardan biri raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir. Buning uchun, avvalo, ularni zamonaviy axborot va texnologiyalar bilan qurollantirish kerak. Har bir bo'lajak kadr mediata'lim vositalaridan o'rinli foydalanishni bilishi zamon talabidir.

Mediata'lim vositalari – audio, video, infografika, animatsiya va virtual haqiqat kabi texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini yaxshilash imkonini beradi. Ta'lim berish davomida faqat og'zaki ma'lumotlar bilan cheklanish o'quvchilarni zeriktiradi. Har bir aytgan ma'lumotimizni asoslaydigan dalillar keltirsak, aytgan faktlarimiz o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanadi. Misol uchun, gumanitar fanlarni o'qitishda mavzuni og'zaki bayon qilish bilan birga mavzuga oid vedio yoki slaydlardan foydalansak o'quvchilarning qiziqishlari ortadi. Slayd orqali dars o'tishda o'quvchilarning diqqatini jamlash maqsadida rasmlı testlardan yoki mantiqiy, qiziqarli savollardan foydalansak bo'ladi. Natijada diqqati tarqoq o'quvchi ham ekran orqali ko'rsatilgan boshqotirmalarga qiziqadi.

Mediata'lim vositalari ta'lim jarayonida bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi:

— Axborotni vizuallashtirish. Matn shaklida tushuntirilgan mavzularni infografika, diagramma va animatsiyalar orqali yanada tushunarli qilish orqali biz





berilgan ma'lumotlarni amalda ko'rsata olamiz. O'quvchilar berilgan axborotlarni faqat o'qibgina qolmay, vizual dunyodagi kabi kuzata oladi. O'z munosabatlarini kengroq bildiradi olishadi.

— Interaktivlik . O'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, masalan, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida amaliy bilimlarni shakllantirish. Nazariya va amaliyotni birgalikda olib borish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

— Shaxsiylashtirish. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan platformalar har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlaydi. Eng asosiy ustun tarafi baholash jarayonini shaffoflashtirishdir. Bunda inson omili kam ishtirok etib, o'quvchilarning har biri bilim darajasiga binoan haqqoniy va adolatli baholanadi.

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu ta'lim tizimi orqali video darslar, onlayn kurslar va vebinarlarni istalgan joydan kuzatish imkoniyati yaratildi. Bu barcha ta'lim olishni istovchilar uchun qulaylik keltiradi. Yana bir ustun jihati masofaviy ta'limda innovatsion usullardan keng foydalanishdir. Innovatsion ta'lim uslublari mediate'lim vositalari yordamida an'anaviy ta'limdan farqli, yanada samarali yondashuvni ta'minlaydi.

Quyida eng asosiy innovatsion ta'lim uslublari keltirilgan:

1. Flipped Classroom (Teskari sinf). Ushbu yondashuvda o'quvchilar darsliklar va onlayn video darslar yordamida oldindan mavzu bilan tanishib chiqadilar. Dars davomida esa muhokama, amaliy mashg'ulotlar va loyihalar orqali chuqur o'rganish amalga oshiriladi. Mediata'lim vositalari, ayniqsa, interaktiv video darslar bu uslubni samarali qilishga yordam beradi.

2. Gamifikatsiya (O'yinlashtirish). Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali o'quvchilar motivatsiyasini oshirish mumkin. Masalan, mukofotlar, reyting tizimi va interaktiv topshiriqlar orqali o'quvchilarni yanada faol ishtirok etishga undash. Mobil ilovalar va virtual o'yinlar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

3. STEM va STEAM ta'limi. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yoki san'atni ham o'z ichiga oluvchi STEAM yondashuvi zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va 3D modellashtirish bu yo'nalishdagi ta'lim samaradorligini oshiradi.





4. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR & AR). Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar tarixiy joylarni virtual tarzda sayohat qilishlari yoki murakkab ilmiy jarayonlarni vizual tarzda kuzatishlari mumkin. Bu esa ularning mavzuni tushunish darajasini oshiradi. Tarix fanidan mavzularni tushuntirish davomida bu uslubdan foydalanilsa, o'quvchilarning tarixiy voqealarni o'rganishlari osonlashadi.

Mediata'lim vositalari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni tezroq o'zlashtirishlariga yordam beradi, murakkab tushunchalarni oson va aniq tushuntirish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchilarga ta'lim jarayonini interaktiv va ijodiy yondashuv bilan olib borish ko'nikmasi beradi. Lekin, mediata'limning ham bir qancha muammolari mavjud. Ulardan biri, raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun kerakli infratuzilmaning har doim mavjud emasligidir. Ba'zi ta'lim dargohlarida kerakli elektron uskunalar yo'q yoki foydalanishga yaroqsiz. Elektron doskalar, video uzatuvchi qurilmalar o'rniga oddiy doska va plakatlardan foydalanishadi. Natijada o'quvchilarda mediasavodxonlik darajasi past rivojlanmoqda. Bu esa o'quvchilar orasida texnologik vositalardan noto'g'ri foydalanish ehtimolini keltirib chiqaradi. Qaysi manbalardan foydalanish ular uchun samarali natijalar olib keladi, qaysi virtual platformalar ular uchun zararli bularni ajratishlari uchun mediata'lim ko'nikmalari ahamiyatlidir. Buning uchun o'qituvchilarning texnologik kompetensiyasini oshirish zarur. Mediata'lim vositalari orqali innovatsion ta'lim uslublarini joriy etish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Flipped Classroom, gamifikatsiya, STEM va VR/AR texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biroq, mediate'limni to'laqonli tatbiq etish uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, mediata'limni rivojlantirish orqali kelajak avlodning bilim saviyasini oshirishga katta hissa qo'shish mumkin.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov, A. (2021). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Hasanov, B. (2020). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. Qosimov, N. (2019). Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va gumanitar fanlar. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
4. Jononov, U. (2018). Pedagogik innovatsiyalar: Nazariya va amaliyot. Buxoro: Nasr nashriyoti.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2022). O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan davlat dasturi. Toshkent.
6. Keldiyorov, M. (2021). Gamifikatsiya va ta'lim: o'yin elementlari asosida samarali o'qitish. Namangan: Ma'rifat nashriyoti.

